

ZAMONAVIY TA'LIMDA SAMARALI O'QITISHNING BA'ZI SHAKLLARI VA TURLARI.

Dots. Ergashev Baxtiyor Namozovich.

JDPI Matematika o'qitish metodikasi.

Usarov Sardor Abdunazirovich .

JDPI Matematika o'qitish metodikasi.

Qazibekov Musaxon Quadratillayevich.

JDPI Matematika o'qitish metodikasi.

Mamatov Jasur Asatullayevich.

JDPI Matematika o'qitish metodikasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ta'limning ba'zi turlari va ularning afzallik tomonlari haqida tushunchalar berilgan.

Аннотация: Эта статья дает представление о некоторых типах современного образования и их преимуществах.

Annotation: This article provides insights into some types of modern education and their advantages.

Kalit so'zlar: ta'lim turi, ta'lim shakli, case study, blended learning.

Ключевые слова: тип обучения, форма обучения, прикладные исследования, смешанное обучение.

Keywords: type of education, form of education, case study, blended learning.

Oliy o'quv yurtlarida oliy ta'lim xalqaro tizimlarining o'zaro aloqasining ta'sirchan vositasi sifatida ta'lim modul tizimining joriy etilishi mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishga qaratilmoqda. Ma'lumki, ta'lim jarayonida modul texnologiyalari auditoriyaga ajratilgan soat hajmini qisqartirishni, talaba mustaqil ishining ahamiyati va maqomini oshirishni nazarda tutadi. Bunda talabalar mustaqil ishlashini faollashtirish o'quv materialini mazmunini boyitish va mustahkamlashga, yangi kasbiy bilimlarni o'zlashtirishga, ijodiy faoliyat (kreativlik) va interfaollikni rivojlantirishga, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga ko'maklashadi. Mustaqil ishlash talabaning ilmiy adabiyotlar va axborot resurslari bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun imkoniyat yaratadi.

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta'lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi. Ilg'or xorijiy tajribalar va innavastion ta'lim texnologiyalarining asosiy tushunchalaridan ayrimlariga qisqacha to'xtalib o'taylik:

Aralash o'qitish Onlayn o'quv materiallari hamda o'qituvchi rahbarligida guruhda ta'lim olishga asoslangan o'qitish shakli



“Assesment” texnologiyasi – Talabalarning bilim, ko'nikma va malakalari darajasini har tomonlama, xolis baholash imkoniyatini ta'minlovchi topshiriqlar to'plami

Vebinar texnologiya - Web texnologiyalar asosi (onlayn tadbirlar va ta'lim vositalari yordami)da tashkil etiladigan seminar, konferenstiya, bahs-munozara, uchrashuv, taqdimot, trening, turli voqea yok hodisalar boyicha Internet tarmog'i orqali tashkil etiladigan to'g'ridan to'g'ri uzatiladigan lavha (translyastiya)lar



Imitastion oyinlar - Ishlab chiqarish korxonalarini, ish o'rinlari, firmalar, tashkilotlarda xodimlar tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatni imitastiyalash (taqlid qilish, ko'chirish) asosida talabalarni muayyan amaliy yoki kasbiy faoliyatga samarali tayyorlashga yo'naltiradigan oyinlar

Individual ta'lim - Ta'lim jarayonida o'qituvchining faqatgina bir nafar talaba bilan yoki talabaning ta'lim vositalari (adabiyotlar, kompyuter, televidenie, radio va b. axborot texnologiyalar) bilano'zaro hamkorligi asosida o'quv materiallarining o'zlashtirilishini ta'minlashga yo'naltirilgan ta'lim

"Keys-stadi" texnologiyasi - Muammoli vaziyat; talabalarda aniq, real yoki sun'iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan texnologiya.

("Case study" technology - A technology that forms skills in searching for proper variants by analyzing created or authentic dilemma (problematic situation) or problems)

Kompyuter ta'limi texnologiyalari - Talabalarning o'qish, mustaqil ta'lim va o'z-o'zini nazorat qilishni o'z ichiga oladigan bilish faoliyatini boshqarishda pedagogning axborotlarni to'plash va uzatishdan iborat faoliyatining modeli sifatida kompyuter texnikasi, telekommunikatsiya vositalari hamda dasturiy-metodik ta'minot asosida tashkil etiladigan ta'limning shakli, metod va vositalari majmui

Masofaviy ta'lim - Muayyan nuqtadan axborot-kommunikatsiya vositalari (video, audio, kompyuter, multimedia, radio, televidenie va b.) yordamida ta'lim xizmatlarini ko'rsatish, ta'limiy mahsulotlarni tarqatish va etkazib berishdai an'anaviy hamda innovatsion shakl, metod, vositalarga asoslangan holda ta'lim resurslaridan foydalanishga yo'naltirilgan ta'lim

Масофавий ўқитиш тизими

estudy.uz

Главная страница
Написать письмо
Карта сайта

Вы вошли как Баход Сабинович

- Профиль
- Личные сообщения
- Зачётная книжка
- Выход

eSTUDY
СИСТЕМА ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ

ПОИСК

- Курсы
- Библиотека
- Блог
- Чат
- Форум
- Войти

Курс
Масофали таълим

Курс
Физика

Курс
Физика для чайников

Курс
Механика

Курс
Умумий физика курси (1-семестр)

Modul ta'limi - O'quv jarayonini tashkil etishning muayyan shakli bo'lib, unga ko'ra o'quv materialini mantiqiy tugallangan birliklari – modullarga asoslangan holda ma'lum bosqich va qadamlar asosida o'zlashtiriladi.

So'nggi 2-3 yil ichida ET rivojlanishning eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri bu OOOK shakllanishi bo'ldi, ularning asosida ommaviy va hamma uchun bo'lgan ta'lim g'oyasi yotibdi.

OOOK – bu ommaviy ochiq onlayn-kurslar (ingliz. - Massive Open Online Course, MOOC) bo'lib, jahonning etakchi universitetlar tomonidan er sharining istalgan nuqtasida bo'lgan har qanday insonga masofaviy texnologiyalar yordamida, aniq belgilangan oraliq va yakuniy nazorat topshiriqlarni topshirish muddatlari va o'qituvchilar va yuz minglab talabalar (kurs tinglovchilari) orasida erkin mulohazani tashkil qilish imkoniyatini beruvchi akademik kurslarni taqdim etishda asoslangan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.L.V.Golish, D.M.Fayzullayeva, Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. TDIU.-Toshkent 2010 y. 148b.
- 2. S Usarov, S Turdiboyev “BO’LAJAK MATEMATIKA O’QITUVCHILARI KASBIY TAYYORGARLIK JARAYONIDA MATEMATIK KOMPETENTLIGINI OSHIRISH”.Журнал математики и информатики 1 (2).
- 3. Usarov, S. (2020). МАКТАБДА МATEMATIKA FANI DARSLARINI LOYIHALASHTIRISH. Журнал математики и информатики, 1(1).
- 4.Raxmatov, A., Raxmonkulov , F. ., & O’sarov , S. . (2020). ZAMONAVIY ELEKTRON O’QUV MATERIALLARI TAYYORLASHDA ADOBE CAPTIVATE DASTURIDAN FOYDALANISH. Архив Научных Публикаций JSPI, 2(1).
- 5. Rakhmonkulov, F. (2020). TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA VIRTUAL MUHITNI SHAKLLANTIRISH. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(4).
- 6.Sardor Usarov, Gavhar Mirsaidova “TA’LIMDA KOMPETENTLI YONDASHUV. KOMPETENTLIK VA KOMPETENSIYA HAQIDA.” Журнал математики и информатики, 2021 14-bet.
- 7. Эргашев Ж. “Математик анализ курсини ўқитишда ахборот коммуникатсияси технологияларидан фойдаланиш” “Педагогик маҳорат” илмий-услубий журнал, Бухоро, 20013й, №3
- 8. Эргашев Ж. “ Психолого-педагогические аспекты использования электронных учебных комплексов по математике ” “Россия Федерацияси, Молодой ученный, илмий журнал, 2014 й, №12”